

**NAVOIY VILOYATINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI**

(2019 yil yanvar-sentabr*)

Navoiy viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4587,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,6 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 605,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 81,4 %), kichik tadbirdorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 3982,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 663,1 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,6 %ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.


**Hududlar kesimida chakana savdo tovar
aylanmasi hajmi, (mlrd.so'm)**



*-dastlabki ma'lumotlar

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Xatirchi tumani, Karmana tumani, Navbahor tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Uchquduq tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,4 %ga o'sdi va 605,0 mldr. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,2 % ulushiga to'g'ri keladi.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Jami (mlrd. so`m)	Jamidan			
		Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	4587,8	605,0	13,2	3982,8	86,8
<i>shahar va tumanlar:</i>					
Navoiy shahar	1584,6	575,1	36,3	1009,5	63,7
Zarafshon shahar	440,3	7,1	1,6	433,1	98,4
Karmana tuman	696,4	1,8	0,3	694,6	99,7
Konimex tuman	122,0	0,6	0,5	121,4	99,5
Qiziltepa tuman	523,7	6,5	1,2	517,2	98,8
Navbahor tuman	276,1	0,6	0,2	275,5	99,8
Nurota tuman	178,9	2,1	1,2	176,8	98,8
Tomdi tuman	33,3	0,2	0,6	33,1	99,4
Uchquduq tuman	220,2	0,4	0,2	219,8	99,8
Xatirchi tuman	512,3	10,6	2,1	501,8	97,9

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 3982,8 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2,3 %ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,8 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi




Joriy yilning yanvar-sentabr oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Uchquduq (99,8%), Navbahor (99,8%), Karmana (99,7%), Konimex (99,5%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 13,2 %ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (36,3 %) va Xatirchi tumanida (2,1 %) kuzatilgan.

**Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	4587,8	4557,1	30,7
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	1584,6	1554,0	30,6
Zarafshon shahar	440,3	440,3	-
Karmana tuman	696,4	696,3	0,1
Konimex tuman	122,0	122,0	-
Qiziltepa tuman	523,7	523,7	-
Navbahor tuman	276,1	276,1	-
Nurota tuman	178,9	178,9	-
Tomdi tuman	33,3	33,3	-
Uchquduq tuman	220,2	220,2	-
Xatirchi tuman	512,3	512,3	-

**Mulkchilik shakli bo'yicha
chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, (%)da
2019 yil yanvar-sentabr**



Yuqoridagi diagrammadan ko'rinish turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 4557,1 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumi hajmga nisbatan ulushda) 0,5 foizga kamaydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 30,7 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumi hajmga nisbatan ulushda) 0,5 foizga ko'paydi.

Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 4,7 mln. so'mni tashkil etdi.


O'rtacha aholi jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Navoiy shahri (11,6 mln. so`m), Uchquduq tumanida (5,9 mln. so`m) va Karmana tumani (5,4 mln. so`m) kuzatildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Aholi jon boshi (ming sum)	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (%)
Navoiy viloyati	4653,0	106,7
Navoiy shahar	11566,5	121,0
Zarafshon shahar	5310,8	101,2
Karmana tuman	5394,1	99,7
Konimex tuman	3465,5	101,5
Qiziltepa tuman	3486,4	99,7
Navbahor tuman	2474,5	100,7
Nurota tuman	1953,5	100,4
Tomdi tuman	2295,2	101,2
Uchquduq tuman	5919,9	100,7
Xatirchi tuman	2604,7	102,0

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (34,5 foiz), Karmana tumani (15,2 foiz), Qiziltepa tumani (11,4 foiz), Xatirchi tumani (11,2 foiz), va Zarafshon shahri (9,6 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


**Chakana savdo tovar aylanmasida
viloyat hududlariningning ulushi**



Jumladan, 2019 yilning yanvar-sentabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3 % ni tashkil etib, 103,6 mld. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 90,7 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari

savdo aylanmasi hajmi (mlrd.so'm) va o'sish sur'atlari



Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi 9,7 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 12,0 %ga kamaygan), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 93,9 mlrd. so`mni (o`sish sur`ati 2,7 %) tashkil etdi.

**Viloyatda yirik umumiyligi ovqatlanish korxonalarining
tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd. so`m)	O'sish sur'ati, % da	Shundan		
			Yirik korxonalar (mlrd. so`m)	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	103,6	101,2	9,7	88,0	9,3
<i>shaharlar</i>					

Navoiy shahar	42,0	99,8	9,6	89,8	22,8
Zarafshon shahar	11,8	103,0	-	-	-
<i>tumanlar:</i>					
Karmana tuman	18,6	102,9	0,1	93,8	0,5
Konimex tuman	2,1	101,8	-	-	-
Qiziltepa tuman	8,8	101,2	-	-	-
Navbahor tuman	3,4	100,7	-	-	-
Nurota tuman	2,5	95,6	-	-	-
Tomdi tuman	1,1	102,7	-	-	-
Uchquduq tuman	4,1	101,9	-	-	-
Xatirchi tuman	9,2	102,8	-	-	-

**Viloyatda kichik umumiyoq ovqatlanish korxonalarining
tovar aylanmasi hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	O'sish sur'ati, %da	Shundan		
			Kichik tadbirkorlik (mlrd. so`m)	O'sish sur'ati, %da	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	103,6	101,2	93,9	102,7	90,7

shaharlar


Navoiy shahar	42,0	99,8	32,4	103,2	77,2
Zarafshon shahar	11,8	103,0	11,8	103,0	100,0

tumanlar:

Karmana tuman	18,6	102,9	18,5	103,0	99,5
Konimex tuman	2,1	101,8	2,1	101,8	100,0
Qiziltepa tuman	8,8	101,2	8,8	101,6	100,0
Navbahor tuman	3,4	100,7	3,4	101,4	100,0
Nurota tuman	2,5	95,6	2,5	102,0	100,0
Tomdi tuman	1,1	102,7	1,1	102,7	100,0
Uchquduq tuman	4,1	101,9	4,1	101,9	100,0
Xatirchi tuman	9,2	102,8	9,2	102,8	100,0

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibidagi ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Zarafshon shahrini, Xatirchi tumani, Qiziltepa tumanini misol keltirishimiz mumkin.

**Navoiy viloyatida mulkchilik
shakli bo'yicha ovqatlanish
korxonalari savdo aylanmasi ulushi, (%)da
2019 yil yanvar-sentabr**



Yuqoridagi diagrammadan ko'rinish turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 94,1 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumi hajmga nisbatan ulushda) 5,6 foizga kamaydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 9,5 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumi hajmga nisbatan ulushda) 5,6 foizga ko'paydi.

Mulkchilik shakli bo'yicha


ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	103,6	94,1	9,5
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	42,0	32,6	9,4
Zarafshon shahar	11,8	11,8	-
Karmana tuman	18,6	18,5	0,1
Konimex tuman	2,1	2,1	-
Qiziltepa tuman	8,8	8,8	-
Navbahor tuman	3,4	3,4	-
Nurota tuman	2,5	2,5	-
Tomdi tuman	1,1	1,1	-
Uchquduq tuman	4,1	4,1	-
Xatirchi tuman	9,2	9,2	-

NAVOIY VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-sentabr*)

2019 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1623,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 2,2 foizga oshdi.



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko`ra 921,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,8 %ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 56,8 % ni tashkil qilmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub`ektlari aylanmasining ulushi esa 43,2 %ni tashkil etdi.

*-dastlabki ma'lumotlar

2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning ko'pgina hududlarida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani, Karmana tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Tomdi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirdorlikning hajmi**

	Jami (mlrd.so`m)	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	Ulushi, %da
Navoiy viloyati	1623,6	702,1	43,2	921,5	56,8
Navoiy shahar	1149,4	228,7	19,9	920,7	80,1
Zarafshon shahar	37,4	37,4	100,0	-	-
Karmana tuman	256,7	256,7	100,0	-	-
Konimex tuman	7,5	7,5	100,0	-	-
Qiziltepa tuman	48,6	48,6	100,0	-	-
Navbahor tuman	53,3	53,3	100,0	-	-
Nurota tuman	5,5	5,5	100,0	-	-
Tomdi tuman	1,4	1,4	100,0	-	-
Uchquduq tuman	9,5	9,5	100,0	-	-
Xatirchi tuman	54,3	53,5	98,6	0,8	1,4


Yuqoridaagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahrida va Xatirchi tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 8 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik tadbirdorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan.

Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 1149,4 mlrd. so'mni tashkil etadi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,1 %ni tashkil qiladi.)

**Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha
ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**

	Jami	Nodavlat mulki	Davlat mulki
Navoiy viloyati	1623,6	1622,8	0,8
<i>shahar va tumanlar:</i>			
Navoiy shahar	1149,4	1149,4	-
Zarafshon shahar	37,4	37,4	-
Karmana tuman	256,7	255,9	0,8
Konimex tuman	7,5	7,5	-
Qiziltepa tuman	48,6	48,6	-
Navbahor tuman	53,3	53,3	-
Nurota tuman	5,5	5,5	-
Tomdi tuman	1,4	1,4	-
Uchquduq tuman	9,5	9,5	-
Xatirchi tuman	54,3	54,3	-


**Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo
tovar aylanmasi ulushi, (%)da
2019 yil yanvar- sentabr**



Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'riniib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 1622,8 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiylajmga nisbatan ulushda) 0,004 foizga ko'paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 yil yanvar-sentabr oylarida 0,8 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 yilning mos davriga nisbatan (umumiylajmga nisbatan ulushda) 0,004 foizga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi





Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (70,8 foiz), Karmana tumani (15,8 foiz) va Xatirchi tumani (3,3 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'lumi
Tel.: (0871) 230-84-36